

QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISHNI DEGRADATSIYAGA QARSHI TADBIRLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Abdiraxmatov Nuriddin Abdiraxmatovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishni degradatsiyaga qarshi tadbirlar asosida tashkil etish maqsadida zamonaviy usullardan foydalanish bo‘yicha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Degradatsiya, yer, monitoring, zamonaviy usullar, karta va plan.*

***Abstract.** This article provides information on the use of modern methods to organize the use of agricultural land on the basis of anti-degradation measures.*

***Keywords:** Degradation, land, monitoring, modern methods, map and plan.*

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan, jamiyatimizda olib borilayotgan hamma sohalarni erkinlashtirilishiga yo‘naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy qayta qurish, yerga oid munosabatlarni tartibga solish, yer resurslaridan asrab-avaylab, oqilona foydalanish darajasining oshirilishini ta‘minlashga qaratilgan obyektiv shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yerdan ayniqsa, sug‘oriladigan yerlardan oqilona va samarali foydalanish yotadi. Bu yo‘nalishda keyingi yillarda ham katta hajmlardagi ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, fermer xo‘jaliklari maydonlarini kengaytirish, maxsulot ishlab chiqarishga yangi va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarni ekologik va agrokimyoviy, agrotexnik xolatini va sug‘orish ishlarini yaxshilash maqsadida sug‘orish tizimini takomillashtirish, o‘simliklarini iqlim va tuproq xolatini hisobga olgan holda joylashtirish, yerning holatini saqlash va hosildorligini oshirish, ekin

navlarini yaxshilash kabi bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish jarayonida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va xatolar, o'z navbatida noto'g'ri foydalanishlar yerlarning degradatsiyaga (tanazzulga) uchramoqda. Bu jarayon nafaqat respublikamizda balki butun jahonda dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda.

Tuproq degradatsiyaning asosiy turlariga: tuproqning fizikaviy, fizik-kimyoviy, biologik xossalari, havo, suv va issiqlik rejimiga salbiy ta'sir etuvchi, eroziya, degumifikatsiya jarayonlari, qatlamlarning zichlanishi, kislotalikning ortishi, ikkilamchi sho'rlanish, botqoqlanish kabilari kiradi.

Qishloq xo'jaligi yerlarini begona o'tlar, yadoximikatlar, avtomobil va temir yo'l transportlari bilan maishiy va sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi davom etmoqda. Tabiiyki bularning barchasi sug'oriladigan ekinzorlarni qisqarishiga, tuproqlar unumdorligi va ekinlar hosidorligini pasayishiga olib keladi.

Viloyat sug'oriladigan maydonlarining 58,3 % zovurlar bilan ta'minlangan. Ammo ushbu tarmoqlarning texnik xolatlari qoniqarli emas. Bugungi kunda xo'jaliklararo tarmoqlarning 107 km ta'mirlashga va 678 km. tozalanishga muxtoj. Ichki xo'jalik tarmoqlarining esa 7548 km. ta'mirlash va 2900 km. tozalash ishlariga muxtojdir. Albatta bunday yirik xajmlardagi ishlarni bajarish uchun davlat tomonidan mablag'lar ajratilishi maqsadga muvofiqdir, chunki fermer xo'jaliklarning o'zlarida bunday mablag'lar mavjud emas.

O'tkazilgan ko'p yillik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, viloyatda mavjud sug'oriladigan maydonlar tanazzulini kamaytirish hamda ulardan foydalanishni oqilona tashkil etishning asosiy yo'nalishlaridan biri-bu sug'orish suvidan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishdir. Bu esa o'z navbatida sug'orish va zovur tarmoqlarini tiklashga shuningdek suvdan foydalanishni boshqarish samaradorligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish zarurligini tug'diradi. Jumladan, "O'zsuvloyiha" institutining ma'lumotlari bo'yicha, viloyatda mavjud bo'lgan sug'orish tarmoqlarining umumiy uzunligi (xo'jaliklararo va ichki xo'jalik birgalikda) 22492 km.ni tashkil etadi. Ularning 48,4 % beton o'zanlarda, qolganlari esa yerning o'zida,

qaysiki bunda suvning bekordan bekorga isrof bo'lishi kattaroqdir. Bundan tashqari, suv taqchilligi kuzatilgan yillari ichki sug'orish tarmoqlarining bir qismi sug'orish suvi oqmaganligi sababli kumilib ketgan yoki buzib tashlangan. Aynan shu sababli bugungi kunda viloyat buyicha 23904,0 ga sug'oriladigan maydon sug'orilmasdan qolmoqda.

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tuproq unumdorligini saqlash va oshirishda, shuningdek ushbu maydonlar tanazzulini to'xtatishda almashlab ekishni joriy etish ham muxim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda almashlab ekishni joriy etish bo'yicha hech qanday muammo mavjud emas. Fermer xo'jaliklarning maydonlari kengaytirildi, ular iqtisodiy va tashkiliy jihatlaridan ma'lum imkoniyatlarga egadirlar, ilmiy muassasalar tomonidan almashlab ekishlarning turli tiplari va sxemalari ishlab chiqilgan va tavsiya qilinmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sug'orish suvidan samarali foydalanish samaradorligini oshirish, sug'orish va kollektor-zovur tarmoqlarini ta'mirlash hamda tozalash ishlarini bajarish shuningdek, almashlab ekishni qonunchilik asosida joriy etilishini yo'lga qo'yish so'zsiz viloyatning sug'oriladigan maydonlarni degradatsiyalanishini kamaytiradi hamda ular samaradorligini oshiradi.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алиқулов, Ғ., & Аралов, М. (2022). РЕЛЬЕФНИНГ РАҚАМЛИ МОДЕЛЛАРИНИ УЧУВЧИСИЗ УЧИШ АППАРАТЛАРИ ЁРДАМИДА ЯРАТИШ. *Innovatsion Texnologiyalar*, 1(4), 131–134. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/127>
2. Aralov, M. M. (2022). MUHANDISLAR TAYYORLASH TA'LIMINING MUAMMOLARI VA YUTUQLARI. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(4), 107–111. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2630>
3. Aralov, M. M., & Qilichev, Z. M. (2023). ТОПОГРАФИК ЧИЗМАЧИЛИК ФАНИНИ О'QITISHDA БО'LAJAK MUHANDISLARNING GRAFIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI. *Innovative Development in*

Educational Activities, 2(7), 674–679. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1100>

4. Ibragimov Utkir Nurmamat o'g'li, and Aralov Muzaffar Muxammadiyevich. 2022. "Topografik kartalar yaratishning asosiy usullari". *arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali* 1(4):31-33. <https://www.sciencebox.uz/index.php/arxitektura/article/view/4913>.

5. Nortoshov, A. G., Aralov, M. M., & Aliqulov, G. N. (2023). QISHLOQ XO'JALIGI XARITALARINI YANGILASHDA MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARIDAN FOYDALANISH. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(3), 49–56. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/2669>

6. Мирмахмудов Э.Р., Ниязов В.Р., Аралов М.М. Анализ точности геодезических пунктов топографических карт вблизи промышленных объектов // *Universum: технические науки : электрон. научн. журн.* 2021. 2(83).

7. Мирмахмудов Э.Р., Ниязов В.Р., Аралов М.М. Проектирование геодезической сети сгущения в окрестности промышленных объектов // *Вестник науки. Научный журнал.* №5-1(7), С. 212-220.

8. Э.Р.Мирмахмудов, Э.Эгамбердиев, М.М.Аралов. Рекогносцировка пунктов геодезической сети в окрестности г. Карши. *Современная наука в условиях модернизационных процессов: проблемы, реалии, перспективы.* 2021. 261-267.

9. Aralov , M. M., & Oripov U.O. (2022). Yer monitoringini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish usullari. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON* , 2022 - researchedu.org

10. M.M Aralov, T.Y Bobonazarov. Dehqon xo'jaliklarini kadastr ma'lumotlari bazasini takomillashtirish - *CONFERENCE ON LEARNING* , 2022 - researchedu.org

11. Aralov, M. M. (2022). MUHANDISLAR TAYYORLASH TA'LIMINING MUAMMOLARI VA YUTUQLARI. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(4), 107–111. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2630>

12. Aralov, M. M., Berdiyev, D. F., & Abdiaziziov, A. A. (2021). UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARINI KARTOGRAFIYA SOHASIDA QO‘LLASH TAMOYILLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 671-676.

13. Aralov, M. M., Berdiyev, D. F., & Abdiaziziov, A. A. (2021). TERAQO‘TON KONIDA QAZISH ISHLARINI NOBUDGARCHILIKSIZ OLIB BORISHNING ISTIQBOLLI YECHIMLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 619-624.

14. Aralov, M. M., Berdiyev, D. F., & Abdiraxmatov, N. A. (2021). GEODEZIK ISHLARDA SUN‘IY YO‘LDOSH ORQALI O‘LCHASH USULLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 378-382.

15. Muzaffar Muxammadiyevich Aralov, Dilshod Faxriddin O‘G‘Li Berdiyev, Fayzali Samiqulovich Safarov, & Ruslanbek Baxtiyor Ogli Eshonqulov. (2022). TALABALARNING KARTOGRAFIK CHIZMACHILIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI BOSHQARISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(2), 552-559.

16. MM Арало, ШМ Гулов, ДД Шоғдаров.(2022). Замонавий Геодезик Асбоблардан Фойдаланиб Топографик Съёмка Ишларини Бажариш. (2022): Барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(2), 84-87. <http://www.sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/751>.

17. Аликулов, F., & Аралов, M. (2021). GNSS ДАН ФОЙДАЛАНИБ ҚАРШИ ШАҲАР ҲУДУДИ ГЕОДЕЗИК ТАРМОҒИ КООРДИНАТАЛАРИНИ ЎЛЧАШ. Innovatsion Texnologiyalar, 2(42), 25-28. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=p_TkgnA AAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=p_TkgnAAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC

18. M.M Aralov, T.Y Z.A.Toshpo‘latova. (2022). DEHQON XO‘JALIKLARINI KADASTR MA‘LUMOTLARI BAZASINI TAKOMILLASHTIRISH. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4),219–222. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=p_TkgnA AAAAJ&citation_for_view=p_TkgnAAAAAJ:iH-uZ7U-co4C